

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.03.05.RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KARIMOV MA'RUF IXTIYOROVICH

KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA SANOAT KORXONALARINI
INNOVATSION RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(“Olmaliq KMK” AJ misolida)

08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук
(PhD) по экономическим наукам**
**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Karimov Ma’ruf Ixtiyorovich

Klaster yondashuvi asosida sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish..... 3

Каримов Маъруф Ихтиёрвич

Совершенствование механизмов инновационного развития промышленных предприятий на основе кластерного подхода 28

Karimov Maruf Ikhtiyorovich

Improvement of the innovative development mechanism of industrial enterprises based on the cluster approach..... 56

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 60

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.03.05.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KARIMOV MA'RUF IXTIYOROVICH

**KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA SANOAT KORXONALARINI
INNOVATSION RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH
("Olmaliq KMK" AJ misolida)**

08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2021.3.PhD/Iqt1763 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdtu.uz) va «ZiyoNet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xoshimova Naima Abidovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kasimova Fatima To'lkunovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Salimov Baxtiyor Tajiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.03.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___»_____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. Ye-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. Ye-mail: : tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___»_____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «___»_____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Ikramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.I.Begmullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

G.J.Allayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kon-metallurgiya sanoatining ilm hajmdor xususiyatiga ko‘ra innovatsion rivojlantirishda klaster yondashuvi ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilish, bandlikni ta‘minlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Garvard biznes maktabi ma‘lumotlariga ko‘ra “klasterlar AQSH iqtisodiyotida bandlikning 32 foizidan ko‘prog‘ini ta‘minlaydi, Shvetsiyada mehnatga layoqatli aholining 39 foizi klasterlarda ishlaydi. Klasterlarda mehnat unumdorligi va ish haqi darajasi milliy o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha yuqori”¹. Bugungi kunda jahonda iqtisodiyotni raqobatbardosh konstruksion materiallar, qora va rangli metallar kabi mahsulotlar bilan ta‘minlashda klaster yondashuviga ko‘ra metallurgiya sanoatini rivojlantirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Jahonda kon-metallurgiya sanoatini klaster yondashuviga ko‘ra rivojlantirishda ishlab chiqarishni boshqaruvning ilg‘or usullariga ko‘ra tashkil qilish, “sinergik samara” va modernizatsiyalash darajasini oshirish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlarga ustuvor darajada ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada resurs salohiyatidan samarali foydalanish, metallurgiya sanoatini innovatsion modelga ko‘ra tashkil qilish, klasterlarni rivojlantirishning samarali yondashuvlarini asoslash, ishlab chiqarishning intellektuallashuvi sharoitida bandlik masalasini ijobiy hal etish kabi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, uning yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan kon-metallurgiya sanoatini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, sohaning raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarishni samarali shakllarda tashkil qilish kabilarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish va ta‘minlashda iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlari bilan muvozanatlashgan ustuvor strategik tarmoqlarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan². Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, jumladan sohada qo‘shimcha qiymatni shakllantirishning yaxlit zanjirini yaratish, innovatsion klaster faoliyati samaradorligini baholash yondashuvini soha xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda takomillashtirish, metallurgiya sanoati mahsulotlari eksportini rivojlantirishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini asoslash, sohani rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 24-iyundagi PQ-5159-son “Tog‘ kon-metallurgiya sanoatini va turdosh tarmoqlarni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil

¹Regional knowledge economies: markets, clusters and innovation / P. Cooke et al. Northampton, Massachusetts 01060, USA, 2017

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

21-апрелдаги PQ-5083-сон “Геология sohasiga investisiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xomashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 4-avgustdagi 498-son “Геология, konchilik, metallurgiya va misni qayta ishlash tarmoqlarini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-son “Tog‘-konmetallurgiya sanoati korxonalarini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsion tadqiqot ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnikasini rivojlantirishning “Demokratik - huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot uzoq va yaqin mamlakatlar xorij olimlari, mahalliy tadqiqotchilar hamda xalqaro institutlarning ishlarida keltirilgan keng qamrovli iqtisodiyotning nazariy qoidalari va klasterlar nazariyasiga asoslanadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta’minlashning nazariy va amaliy muammolari xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Xorijlik olimlar Y.Shumpeter, A.Smit, D.Rikardo, R.Nelson, S.Frimen, N.Mensh, R.Kous, A.Launvall, M.Porter va boshqalar sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishining ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar³.

MDH mamalatlari iqtisodchi-olimlari N.Kondratyev, Y.P.Morozov, R.A.Fatxutdinov, L.K.Guriyeva, Yu.V.Yakovlev, O.V.Panfilova, K.A.Dolonin, N.A.Xramsova, A.D.Shestopalov innovatsion rivojlanishning ayrim jihatlari⁴,

³Шумпетер, Й. Теория экономического развития [перевод с англ.]. – М.: Директ медиа Паблишинг, 2008. – 401 с.; Смит, А. Исследования о природе и причинах богатства народов: пер. с англ. / А. Смит. - Кн. 1. - Москва: Дело, 1997. - С. 33; Рикардо, Д. Сочинения. - Т. 1. - Москва: Политиздат, 1955. - С. 58.; Твисс, Б. Управление научно-техническими нововведениями: пер. с англ. / Б. Твисс; науч. ред. К.Ф. Пузыня. - Москва: Экономика, 1989. - С. 113. - 271 с.; Nelson, R.R. An Evolutionary Theory of Economic Change [Text] / R.R. Nelson, S.W. Winter. - Harvard University Press., 1982. - P. 35.; ³ Freeman, C. The National System of Innovation in Historical Perspective [Text] / C. Freeman // Cambridge Journal of Economics. - 1995. - Vol. 19. - № 1. - P. 105-110.; Nelson, R.R. An Evolutionary Theory of Economic Change [Text] / R.R. Nelson, S.W. Winter. - Harvard University Press., 1982. - P. 35.; Mensch, H. Stalemate in technology: innovation overcome the depression [Text] / H. Mensch. - Cambridge (Mass.), 1979. - 208 p.; Cous, R. The nature of innovative process / R. Cous // Technical Change and Economic Theory. - London and New York: Printer Pub., 1988. - P. 66-69; Lundvall, B.-A. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning / B.-A. Lundvall. - London: Pinter Publishers, 1992. - 246 p; Портер М. «Конкуренция». Пер. с англ. - Учебное пособие. М.: изд. дом «Вильямс», 2001 г. - стр. 314.

⁴Кондратьев, Н.Д. Проблемы экономической динамики [Текст] / Н.Д. Кондратьев. - Москва: Наука, 1989. - С. 101-102.; Фатхутдинов, Р.А. Инновационной менеджмент: учебник для вузов. 6-е изд [Текст] / Р.А. Фатхутдинов. – СПб.: Питер, 2008. – 448с.; Морозов, Ю.П. Управление технологическими нововведениями в условиях рыночных отношений / Ю.П. Морозов. - Н. Новгород, 1995. – С.; Гуриева, Л.К. Стратегия инновационного развития экономики региона: теория и методология [Текст]: монография / Л.К. Гуриева; под. ред. д-ра экон. наук, проф. К.И. Плетнева; Северо-Осетинский государственный университет. - Владикавказ: Изд-во СОГУ, 2007. - С. 9.; Яковец, Ю.В. Эпохальные инновации 21 века [Текст] / Ю.В. Яковец. - Москва: Экономика, 2004. - С. 100-101.; Панфилова О.В. Инновационный потенциал промышленных предприятий как фактор сбалансированного развития национальной экономики / О. В. Панфилова // Проблемы современной экономики. – 2022. – № 4. – С. 78–82.; Храмцова Н.А. Теоретические

A.N.Plotnikov, L.N.Borisoglebskaya, A.V.Zarkovich, LA.Ye.Kurach, T.B.Kosarev, N.S.Sharamigin, I.A.Kodolova⁵ ishlarida esa klasterlarning o‘z-o‘zini tashkil etuvchi va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizimlar sifatida raqobatbardoshligini ta’minlash bo‘yicha uslubiy qoidalarni ishlab chiqish ko‘rib chiqilgan.

Ushbu muammoning turli jihatlarini o‘rgangan mamlakatimiz vakillaridan Yu.Yusupov, N.M.Maxmudov, M.L.Tursunxodjayev, N.X.Jumayev, M.A.Maxkamova, M.A.Ikromov, N.A.Xashimova, G.J.Allayeva, M.B.Xamidulin, Z.T.Gaipnazarova⁶ va boshqa olimlarni ko‘rsatish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq №A2-59 “Yuqori texnologik tarmoqlarda innovatsion klasterlarni shakllantirish metodologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirildi.

основы управления инновационной деятельностью предприятия / Храмцова Н.А., Ахматова А.А. // Стратегии бизнеса. – 2018. – № 10 (54). – С. 18-22.; Долонин К.А. Императивы инновационной кластеризации промышленного сектора // Российский экономический интернет-журнал. – 2019. – № 2. – С. 32.; Шестопалов А.Д. Инновационные технологии – основной драйвер трансформации промышленного сектора экономики // Московский экономический журнал. – 2019. – № 11. – С. 30.

⁵Плотников А.Н. Инновационные стратегии предприятия: сущность, виды, особенности разработки / А. Н.Плотников, Д. А. Плотников, А. В. Кошкарёв // Бизнес и стратегии. – 2017. – № 4. – С. 55-61.; Борисоглебская Л.Н. Методология разработки инновационных проектов / Борисоглебская Л.Н., Нехорошков В.Ю // Инновации. – 2012. – № 1. – С. 82-88.; Заркович А.В. Кластерный подход к формированию региональных инновационных систем (на примере Белгородской области) // Экономика, предпринимательство и право. – 2012. – № 6 (17). – С. 9–22.; Курач А. Е. Формирование стратегии развития и управления инновационным потенциалом организации: автореф. дис. ... канд. экон. наук / Курач Андрей Евгеньевич. – СПб., 2011. – 21 с.; Косарева Т.Б. Формирование кластерной политики региона (на примере Самарской области) // Вестн. УРФУ. Сер.: Экономика и упр. – 2009. – № 2. – С. 61-70.; Шарамыгин Н.С. Управление инновационной активностью промышленных предприятий на основе эффективных методов ее оценки и стимулирования: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / Шарамыгин Николай Сергеевич; [Место защиты: Гос. ун-т – учеб.-науч.-произв. комплекс]. – Орел, 2012. – 24 с.; Кодолова И.А. Формирование инновационной стратегии промышленных предприятий в условиях ускоренного роста отрасли инфокоммуникаций: автореф. дис. ... канд. экон. наук / Кодолова И.А.; Казан. Финансово-экон. ин-т. – Казань, 2004. – 26 с.

⁶Юсупов Ю. Анализ возможностей развития промышленных кластеров и производственной кооперации в Республике Узбекистан//Аналитический доклад проекта ПРООН «Содействие внешней торговле и продвижению инвестиций в Узбекистан» 2012.; Махмудов Н.М. Узбекистонда макроиктисодий баркарорлик ва инвестицион фаолликни ошириш йуналишлари// Архив научных исследований 2021. ; Турсунходжаев М.Л. Теоретические подходы по определению стратегии инновационного развития предприятий. «Научно-практическая конференция «Институциональные императивы инновационного развития национальной экономики» ИЭ АН РУз, 2012.; Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Ташкент, 2004.;Хашимова Н.А. Prospects of innovative development of the metallurgical industry of Uzbekistan// Journal of Hunan University (Natural Sciences) Vol. 48. No. 12. 2021; ИволинаИ.Э. Совершенствование управления устойчивым развитием нефтегазовой промышленности Республики Узбекистан // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 2012.; Г.Ж.Аллаева Инновационный потенциал топливно-энергетического комплекса Республики Узбекистан. Монография- Тошкент. «Фан ва технологиялар» 2017-160 стр.; Хамидулин М.Б., Турсунходжаев М.Л. Развитие финансового механизма корпоративного управления Финансовые аспекты корпоративного управления. – Ташкент: Молия, 2008., 204 с.; Гаипнazarova З.Т. Инновацион инвестицияларнинг самарадорлигини оширишнинг назарий асослари. и.ф.н. диссертацияси.-Тошкент: ТМИ, 2012.-120 б.

Tadqiqotning maqsadi kon-metallurgiya sanoati sohasida klaster yondashuviga ko'ra sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kon-metallurgiya sanoatida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va innovatsion faoliyatni ta'riflashga turli yondashuvlarni tahlil qilish;

kon-metallurgiya sanoatida innovatsion faoliyatning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda klaster tashabbuslarini sanoatning tarmoqlararo rivojlanish omili sifatida ko'rib chiqish;

sanoat klasterini shakllantirish xususiyatlarini tahlil qilish asosida hududiy klaster innovatsion faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish;

metallurgiya sanoatida innovatsiyalarning joriy holatini tahlil qilish va tarmoqni rivojlantirish tendensiyalarini baholash;

metallurgiya sanoatida klaster usulini joriy etishning maqsadga muvofiqligi va samarasini asoslash;

Toshkent viloyatidagi kon-metallurgiya klasteri misolida yaratilgan klaster samaradorligini baholash uslubini ishlab chiqish;

kon-metallurgiya sanoati klasterining potensial yadrosini aniqlash uchun korrelyasiya-regressiya modelini ishlab chiqish;

Toshkent viloyatida kon-metallurgiya klasterini yaratish algoritmini ishlab chiqish;

metallurgiya korxonalarining innovatsion salohiyatini ekonometrik modellar asosida baholash;

kon-metallurgiya sanoatini klasterlashtirish asosida rivojlantirish strategiyasining modeli va optimal ssyenariysini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati xududida kon-metallurgiya innovatsion klasterini yaratish va rivojlantirish kontekstida "Olmaliq KMK" AJ innovatsion faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini metallurgiya sanoati korxonalarining innovatsion klaster doirasidagi innovatsion faoliyati jarayoni bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli va iqtisodiy tahlil, abstrakt-mantiqiy, induksiya va deduksiya, kompleks baholash, guruhlash, statistik, korrelyatsion va regression tahlil, ekspert baholash, prognozlash va matematik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: mintaqaviy innovatsion klaster loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholash yondashuvi mahalliy loyihaning qo'shimcha qiymatni birlashtirish orqali umumiy qo'shilgan qiymatni shakllantirishga ko'ra takomillashtirilgan;

innovatsion klaster faoliyati samaradorligini baholash yondashuvi klasterning beshta asosiy xususiyatini e'tiborga olgan holda mezonlarga ko'ra klasterning tashkil etilishini baholash tizimi, ya'ni tarmoq rivojiga ta'sir qilmasligi, tarmoq

rivojiga ahamiyatsiz ta'sir ko'rsatishi va tarmoq rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ko'ra takomillashtirilgan;

metallurgiya sanoati klasteri samaradorligini metallurgiya sanoati mahsulotlari eksportini rivojlantirish kengashini tashkil qilishga ko'ra oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

2023-2028 yillarda "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyatini rivojlantirishning asosiy prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

innovatsion klaster loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvi takomillashtirilgan;

kon-metallurgiya sanoati klasterining potensial yadrosini aniqlash uchun korrelyatsiya-regressiya modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, "Olmaliq KMK" AJ va metallurgiya korxonalarini buxgalteriya hisobotlaridan olinganligi, iqtisodiy tahlil ma'lumotlari nazariy-uslubiy jihatdan asoslanganligi, ilmiy natijalar xalqaro va milliy miqyosdagi anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilganligi, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy xulosalar va takliflar sanoatni klasterlashtirish asosida metallurgiya korxonalarining innovatsion samaradorligini oshirishning uslubiy bazasini yanada rivojlantirishga, kon-metallurgiya sanoati klasterining innovatsion salohiyati sifati va samaradorligini baholash uslubiyatini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalardan mintaqada innovatsion kon-metallurgiya klasterini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda, sohani istiqbolda rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni asoslashda hamda oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga muvofiq o'quv adabiyotlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilish. Klaster yondashuvi asosida kon-metallurgiya kompleksi korxonalarini innovatsion rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mintaqaviy innovatsion klaster loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholash yondashuvi mahalliy loyiha qo'shimcha qiymatni birlashtirish orqali umumiy qo'shilgan qiymatni shakllantirish taklifi "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyatini strategik rivojlantirish va ishlab chiqarishning asosiy prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Olmaliq KMK" AJning 2023 yil 21 sentyabrdagi 1077-son ma'lumotnomasi). Taklif korxonalarining innovatsion va investitsiya imkoniyatlarini uslubiy jihatdan yanada batafsil baholash imkonini yaratgan;

innovatsion klaster faoliyati samaradorligini baholash yondashuvi klasterning beshta asosiy xususiyatini e'tiborga olgan holda mezonlarga ko'ra klasterning tashkil etilishini baholash tizimi, ya'ni tarmoq rivojiga ta'sir qilmasligi,

tarmoq rivojiga ahamiyatsiz ta'sir ko'rsatishi va tarmoq rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ko'ra takomillashtirilgan yondashuvdan "Olmaliq KMK" AJ faoliyatida foydalanilgan ("Olmaliq KMK" AJning 2023 yil 21 sentyabrdagi 1077-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi innovatsion kon-metallurgiya klasterini yaratishning dastlabki bosqichida ushbu integratsiya tuzilmasini yaratish samarali yoki samarali emasligini baholash imkonini berib, bu o'z navbatida klaster tashabbuslarini amalga oshirishni boshlash imkonini bergan;

mintaqada kon-metallurgiya sanoati klasteri samaradorligini oshirishda metallurgiya sanoati mahsulotlari eksportini rivojlantirish kengashini tashkil qilish va algoritmi "Olmaliq KMK" AJning tashqi iqtisodiy faoliyat bo'limiga joriy qilingan ("Olmaliq KMK" AJning 2023 yil 21 sentyabrdagi 1077-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif klaster (klasterlar) mahsulotlari uchun maqsadli bozorlarni izlash va samarali faoliyatni tashkil qilish, xaridorlar va eksporterlarga beriladigan maslahatlar samaradorligini oshirish, huquqiy ekspertiza sifatini oshirish kabilar imkoniyatini yanada oshirishga xizmat qilgan.

2023-2028 yillarda "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyatini rivojlantirishning asosiy prognoz ko'rsatkichlaridan "Olmaliq KMK" AJni istiqbolda rivojlantirish strategiyasi va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Olmaliq KMK" AJning 2023 yil 21 sentyabrdagi 1077-son ma'lumotnomasi). Taklifning joriy etilishi ichki imkoniyatlarni qo'shimcha jalb qilish hisobiga 2028 yilgacha innovatsion rivojlanish samaradorligini muayyan darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining nashr qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 160 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Sanoatda klasterlash asosida innovatsion jarayonlarni tadqiq etishga nazariy va uslubiy yondashuvlar**" deb nomlangan birinchi bobda sanoat korxonalarida innovatsion jarayonlarni tadqiq etish ilmiy konsepsiyalarining mazmun-mohiyati va u bilan bog'liq ilmiy yondashuvlar va tushunchalar

tavsiflangan. Innovatsion jarayonning xususiyatlari va sanoatda innovatsiya jarayonlari tashkiliy shakllarining mantiqiy majmuasi, uning ishlab chiqarishdagi o‘rnini aniqlashda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari chuqur o‘rganilgan va sanoat majmualarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishida klaster yondashuvining dolzarbligi va innovatsion rivojlantirishni jadallashtirish uchun sanoatning o‘sish sur‘atini innovatsiya klasterlarini rivojlantirish orqali erishish mumkinligi asoslangan.


Zamonaviy nazariyalar va ilmiy yo‘nalishlarni chuqur o‘rganish hamda umumlashtirish shuni ko‘rsatmoqdaki klasterning innovatsionlik darajasi biznes g‘oyalari, ilmiy bilimlar, malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va uni tijoratlashtirish darajasi uchun tashkilotlarning klasterga integratsiyalashuv darajasini aks ettiruvchi miqdoriy va sifat tavsiflari bilan belgilanishi kerak.

Shuni ta’kidlash kerakki global innovatsiyalar indeksida birinchi o‘rinni egallagan mamlakatlar klaster rivojlanishining sezilarli darajasiga ega. Raqobatbardosh tarmoqlarni tanlashga muvofiq texnologik (innovatsion) klasterlarni shakllantirish respublikani iqtisodiy rivojlantirishning yangi strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi, uning me’yoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqish yangi raqobatbardosh ishlab chiqarish va korxonalarini – yuqori texnologiyali tarmoqlar va xizmatlarni shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilishi lozim, bu esa mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Muallif tomonidan kon-metallurgiya sanoatining innovatsion rivojlanishini rag‘batlantirish yo‘nalishida metallurgiya korxonalarini birlashtiruvchi innovatsion klaster yaratish konsepsiyasi taklif qilingan. Ushbu natijaga innovatsion mahsulotlarning integratsiyalashgan qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirish hisobiga ITTKIda hamkorlik va texnologik almashinuv yo‘li bilan erishish taklif etilmoqda. Tarmoqlararo klaster faoliyatining asosiy jihati klaster innovatsion faoliyatining umumiy strategiyasi asosida ishtirokchi korxonalarining raqobatbardoshligini rivojlantirishdan iborat. Klaster faoliyati doirasida innovatsion mahsulotlarning qiymat zanjirini yaratish va ularni tijoratlashtirish uchun innovatsion ishlab chiqarishning to‘liq siklini shakllantirish mumkin. Innovatsion klasterning asosini (klasterning o‘zagi) ilmiy bo‘limlarni o‘z ichiga olgan yuqori texnologiyali korxonalar tashkil etishi kerak⁷.

Shunday qilib, innovatsion klasterlarni ishlab chiqarish subyektlari integratsiyasining maxsus shakli sifatida, ularni tahlil qilish yondashuvlarini iqtisodiy asoslash bilan birga innovatsion klasterlarni shakllantirishning asosiy afzalliklarini aniqlash imkonini berdi: integratsiyaning boshlanishi, innovatsion faoliyatni kuchaytirish, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, hudud imidjini shakllantirish, hududda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish.

⁷Авилова В.В., От региональной экономики к экономике инноваций: преюмственность задач и перспективность направления современных научных экономических исследований в сфере управления инновационным развитием/ В.В. Авилова, М.В. Егорова, А.И. Шинкевич // Вестник Казанского технологического университета. - Казань, 2010. - № 4. - С. 250-266.



1-rasm. Innovatsion klasterning strukturali sxemasi⁸


Klaster hamkorligining afzalliklari nafaqat klaster tarkibiga kiradigan qatnashchilar samaradorligini oshirish, innovatsion faolligining o'sishi va yangi biznes sub'yektlarini ta'minotchilarga, malakali ishchi kuchiga, xizmat ko'rsatuvchi ta'lim markazlariga va boshqa resurslarga ega bo'lishini yengillashtirish, shuningdek, xarajatlarni tejashda o'z ifodasini topadigan iqtisodiy samarani olishdan, balki qatnashchilarga klasterlarda yangi turdagi ishlab chiqarish va mahsulotlarni ishga tushirishga xizmat qiladigan imtiyozli sharoitlar yaratilishidan ham iborat. Hududiy innovatsion klaster loyihasini amalga oshirish samaradorligi uning asosiy qatnashchilari o'z maqsadlariga erishish va ulardan har biri o'ziga xos asosiy funksiyalarini bajarish darajasi bilan belgilanadi.

Hududiy innovatsion klaster loyihasi (HIKL) iqtisodiy samaradorligini baholash borasida taklif etilayotgan jarayon quyidagi harakatlar ketma-ketligi ko'rinishida o'z ifodasini topishi mumkin bo'lib, quyidagi 4 bosqichda aks ettiriladi. 1-bosqichda HIKL va uning tarkibiga kiritiladigan lokal innovatsion klaster loyihasi (LIKL) qatnashchilari tarkibini shakllantirish, ya'ni hududni rivojlantirish strategiyasiga muvofiq ular uchun maqsad va vazifalar belgilash, klaster doirasida LIKL amalga oshirish shartlarini belgilash, shuningdek, har bir LIKL asosiy tarkibini aniqlash amalga oshiriladi. 2-bosqichda klaster tarkibiga kiradigan LIKLlar sinergetika samarasini baholash amalga oshiriladi. 3-bosqichda boshqaruv qarorlarining moslashuvchanlik samarasini baholash amalga oshiriladi.

HIKL umumiy qo'shilgan qiymatini shakllantirishni hududiy klasterga kiritilgan barcha LIKL uchun sof joriy qiymat ko'rsatkichi (Net Present Value - NPV) miqdorlari yig'indisini chiqarish yo'li bilan amalga oshirish taklif etiladi. Klaster ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari shartlari va tarkibining turli

⁸Muallif tomonidan tuzilgan

variantlarini ko‘rib chiqish asosida umumiy qo‘shilgan qiymat maksimal darajaga yetadigan variant qabul qilinadi (2 rasm).



2-rasm. HIKL iqtisodiy samaradorligini baholash⁹

Taqdim etilgan uslubiyot innovatsion klaster loyihasining asosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, LIKLlar va butun hududiy klasterning iqtisodiy samaradorligini baholashga imkon beradi.

Unda baholash bosqichlarini ajratish alohida loyihalarning muammolarini ko‘rish va bartaraf etish, davlat yordamini taqsimlashni asoslab berish va mahalliy loyihalarni rivojlantirishning ehtimoliy yo‘llarini rejalashtirish imkonini beradi.

Uslubiyot klasterlarni boshqaruvchi hududiy tuzilmalarga ularni samarali shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni bajarish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi kon-metallurgiya sanoati korxonalarining rivojlanish tendensiyalari va samaradorligini baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida kon-metallurgiya korxonalarini hozirgi holatini va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va baholash, innovatsion jarayonlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, tashkiliy asoslari va hozirgi holati, tarmoq aksiyadorlik korxonalarida investitsion jozibadorlik va undan samarali foydalanishni iqtisodiy mexanizmini tashkil etuvchi ko‘rsatkichlar tahlil etilgan.

“Olmaliq KMK” AJ O‘zbekiston Respublikasida yagona mis ishlab chiqaruvchi korxonasi sifatida tan olingan bo‘lib, butun respublika bo‘yicha kumushning qariyb 90 foizi va oltinning 20 foizi uning hissasiga to‘g‘ri keladi. Kombinatda yiliga 9 trillion so‘mdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilmoqda va uning asosiy ulushi mis mahsulotlariga to‘g‘ri keladi (50% dan ortiq).

Uning ichki bozorga sotilishi hisobiga kombinat 4,5 trillion so‘mdan ortiq daromad oladi, shundan 2,5 trillion so‘mi davlatga qimmatbaho metallar, 1,2 trillion so‘mi esa mahalliy korxonalariga mis mahsulotlari sotishdan tushadi. “Olmaliq KMK” AJ faoliyatining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

⁹Muallif tomonidan tuzilgan


Qiyoslanadigan narxlarda tovar mahsuloti ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati 2020 yilning mos davriga nisbatan 103,8 foizni tashkil etdi. 2021 yil uchun eksport prognozi 101,4 foizga bajarildi. “Olmaliq KMK” AJ

1-jadval

“Olmaliq KMK” AJ faoliyatining 2021 yil uchun asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari¹⁰

№	Ko‘rsatkich	Solish-tirma og‘irlik	Prognoz (maqsadli) qiymat	Haqiqiy qiymat	Bajarilish foizi	Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichi (Key Performance Indicator)
1	Aktivlarning rentabelligi	17	0,02	0,1187	193,5	100,895
2	Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	20	0,4	0,412	102,9	20,583
3	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	17	10	3,257	32,6	5,536
4	Kreditorlik qarzlarning kunlarda aylanmasi	15	90	154,039	58,4	8,764
5	Debitorlik qarzlarning kunlarda aylanmasi	15	90	16,708	138,7	80,801
6	Qoplash (to‘lov qobiliyati) nisbati	15	1,5	1,932	528,8	19,320
7	Dividend daromadi	0,5	0,5	-	-	-
8	Debitorlik qarzlarning qisqarish ko‘rsatkichi (belgilangan vazifada %da)	0,5	100	-	-	-
	Integral koeffitsiyent	100				235,89

O‘zbekiston Respublikasining eksportga yo‘naltirilgan yirik korxonalaridan biri bo‘lib, yiliga 40,0 million tonnadan ortiq ruda qazib, rangli, qimmatbaho, nodir metallar, portlandsyement va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. Eksport dunyoning 12 dan ortiq mamlakatlarida amalga oshiriladi va respublika eksportining qariyb 10 foizini tashkil qiladi.



3-rasm. “Olmaliq KMK” AJ ning sotilgan mahsulotlari hajmi (2017-2021 y milliard so‘m)¹¹


¹⁰“Olmaliq KMK” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹“Olmaliq KMK” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

OKMK va NKMK negizida Toshkent va Navoiy viloyatlarida metallurgiyani rivojlantirish strategiyasi, bizning fikrimizcha, ham tarmoq, ham hududiy jihatdan klasterli yondashuv asosida belgilanishi kerak.

O‘zbekistonda jahon andozalari darajasidagi metallurgiya klasterlarini shakllantirish allaqachon boshlangan bo‘lib, ularning asosini Toshkent viloyatida joylashgan yirik vertikal integratsiyalashgan xoldinglar tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyundagi “Tog‘-kon-metallurgiya sanoatini va turdosh tarmoqlarni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5159-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida turdosh tarmoqlarda “xom ashyodan tayyor mahsulotgacha” ko‘p bosqichli qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratishga qaratilgan mis mahsulotlari va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy-texnologik klaster yaratilmoqda. Klaster doirasida misni chuqur qayta ishlash hajmini 80 foizga etkazish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan yakuniy mahsulot chiqarish vazifasi qo‘yildi.

O‘zbekistonning Toshkent viloyatida kon-metallurgiya innovatsion klasterining tashkil etilishi ham sanoat salohiyati bo‘yicha Toshkent viloyatining hududlar orasida 3-o‘rinni egallab, O‘zbekistonda sanoat yuksalishining lokomotivi bo‘lgani bilan bog‘liq.



4-rasm. Toshkent viloyati sanoat rivojlanishining xususiyatlari¹²

Toshkent viloyatida metallurgiya innovatsion klasterini shakllantirish “Olmaliq KMK” AJ, “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati, “NM va QQICHB IICHB”, “Toshkent quyma mexanika zavodi” kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlarining, Toshkent metallurgiya kombinatining yirik ishlab chiqarish bazasi, rangli metallarni qazib olish va ishlab chiqarish bo‘yicha Ingichka, Qo‘ytosh va

¹²Muallif tomonidan Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

Olmalıq majmualari bilan ishlab chiqarish aloqalari mavjudligi bilan asoslanadi.

Toshkent viloyatida metallurgiya innovatsion klasterini tashkil etishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

poytaxtga yaqinlik, kuchayib borayotgan anglomeratsiya ta'siri;

mintaqani eng yirik sanoat va transport markazi sifatida belgilovchi qulay transport pozitsiyasi, transport-logistika markazining joylashuvi;

mehnat salohiyati va iste'mol bozori hajmining ahamiyatini oshirish omili bo'lgan aholi zich joylashgan hududligi;

kadrlar salohiyati, ularning malakasini muntazam oshirib borish va bazaviy korxonalarda tayyorlash;

respublikaning boshqa hududlarida o'xshashi bo'lmagan ishlab chiqarish quvvatlarining mavjudligi;

iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi omillari bo'lgan tovar va xizmatlarga ichki talabning oshishi.

Uzoq muddatli istiqbolda rangli metallurgiyani rivojlantirish Toshkent viloyatidagi kon zaxiralarini o'zlashtirishga jalb etish va boshqalar bilan tavsiflanadi, deb tahmin qilinmoqda. Rangli metallarning yirik konlarining mavjudligi ushbu fikrni belgilaydi.

2-jadval

Toshkent viloyatidagi yirik rangli metallar konlari (2021y)¹³

No	Konning nomi	Metall nomi	Miqdori, t	Ishlab chiqarish miqdori, t	Zahirani qayta ishlash davri, yil
1	Qalmoqqir	Mis	6 1500 000	148 000	41
2	Qalmoqqir	Oltin	1 300	15	86
3	Yoshlik-1	Mis	45 000 000	148 000	305
4	Yoshlik-1	Oltin	5 384	15	360
5	Sari-Cheku	Mis	856 000 000	4 000 000	214
6	Uch-Quloq	Mis	51 500 000	500 000	103
7	Kovuldi	Oltin-mis	15 525 000	345 000	45
8	Koch Buloq	Oltin-mis	240 000	40 000	6
9	Qizil Olma	Oltin-mis	620 000	100 000	62

Toshkent viloyatida kon-metallurgiya innovatsion klasterini yaratishni belgilab beruvchi eng muhim omillar, avvalroq ta'kidlanganidek, ko'p navli metall mahsulotlariga iste'mol talabi va hududlararo hamkorlikdagi qiyinchiliklardir. Toshkent viloyatidagi kon-metallurgiya innovatsion klasterini 2021-yilda tashkil etilgan Mis sanoati klasteri¹⁴ va mavjud metallurgiya korxonalarini negizida shakllantirish lozim.

Toshkent viloyati mahalliy temir rudasi zahiralarining barcha prognoz qilingan resurslari jamlangan kon-metallurgiya innovatsion klasterini shakllantirish uchun eng yaxshi istiqbolga ega. Temir rudasining taxminiy zaxiralarining yarmidan ko'pi Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi (79,0%). Viloyatda temir rudasi xomashyosi Shimoliy-Sharqiy mintaqasining barcha zaxiralaridan 46,4 foizi va

¹³Muallif tomonidan Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.


¹⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyundagi "Tog'-kon-metallurgiya sanoatini va turdoshtarmoqlarni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5159-son Farmoni

O‘zbekistonda hisobga olinganidan 58,7 foiziga to‘g‘ri keladi. Toshkent viloyatining yana bir ajralib turuvchi jihati bu o‘rganilgan konlarning kattaligidir.

Toshkent viloyatida tashkil etilishi taklif qilinayotgan kon-metallurgiya innovatsion klasterining birlamchi resurs bazasini to‘rtta kon – Toshkent viloyatidagi “Yoshlik 1”, “Qalmoqqir”, “Surenat” va “Shavazay” konlari tashkil etadi.

Toshkent viloyatidagi kon-metallurgiya innovatsion klasterining (KMIK) loyiha tuzilmasi keltirilgan (5-rasm).

Toshkent viloyatida kon-metallurgiya innovatsion klasterini yaratish bo‘yicha taklif etilayotgan keng ko‘lamli loyihaning innovatsion tarkibiy qismi kon sanoati korxonalarini kompleks loyihalash sohasidagi ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba zavodi va doimiy sanoat laboratoriyalarini o‘z ichiga oladigan rangli metallurgiya ilmiy-texnika majmuasidir.



5-rasm. Kon-metallurgiya innovatsion klasterining tuzilishi¹⁵

Toshkent viloyatida temir rudasi bazasini sanoat o‘zlashtirish va kon-metallurgiya innovatsion klasterini tashkil etishdan olingan ijtimoiy-iqtisodiy samara qariyb 5,5 ming yangi ish o‘rni, infratuzilma va ijtimoiy obyektlarni qurilishi, barcha darajadagi byudjetlar va yalpi hududiy mahsulot daromadlarining o‘shirishidir. Toshkent viloyatidagi kon-metallurgiya innovatsion klasteri, yer osti boyliklarini samarali o‘zlashtirish orqali mintaqaning barqaror rivojlanishini ta‘minlash imkonini beradigan yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishga kompleks yondashuv namunasidir.

¹⁵Muallif tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot asosida tuzilgan

Shunday qilib, hududiy ishlab chiqarish integratsiyasini tashkiliy loyihalashning amaliy muammolarini hal qilish uchun, Toshkent viloyatida metallurgiya sanoatini rivojlantirishga yangi turtki olish maqsadida klaster yondashuvidan (klaster nazariyasi) foydalanish kerak va bu esa o'z navbatida ko'rib chiqilayotgan metallurgiya sanoati va umuman mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardosh ustunliklarini oshiradi.

Klasterlar samaradorligini aniqlashda turlicha yondashuvlarni tahlil qilish asosida muallif tomonidan innovatsion klaster faoliyatini baholashning mavjud uslubiy yondashuvlarini chuqur o'rganib chiqqan holda, metodologiya ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra klasterning har bir xususiyatlari uchun muallif ularni baholash mezonlarini taklif qilgan.

3-jadval

Yaratilayotgan klaster faoliyati samaradorligini baholash tizimi¹⁶

Ta'rifni baholash mezonlari	Ta'rifga ta'sir koeffitsiyenti (Ki)	Mezonlarga ta'sir etuvchi omillar	Baholash metodologiyasi
1	2	3	4
1. Raqobatbardosh korxonalarining mavjudligi (N1)			
k1–korxonalarining hozirgi rivojlanish salohiyatini aniqlash	0,4	– ishlab chiqarish quvvatlarining o'rtacha yuklash darajasi	To'liq yuklangan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmatlar) hajmini oshirish koeffitsiyentini hisoblash
k2–klaster korxonalarining mintaqa sanoatiga ta'siri	0,4	– ichki bozorni gulushi	Tarmoqda mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish hajmida ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)ning umumiy hajmini hisoblash.
k3 – tarmoqdagi klaster korxonalari imidji	0,2	– klaster korxonalarining ishbilarmonlik faolligi darajasi; – klaster korxonalarining faoliyat ko'rsatish tajribasi	Ekspert tekshiruvi
2. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish (N2)			
k4 –tarmoqning innovatsionlik darajasi	0,5	– klaster yaratilgandan keyin tarmoqda yangiliklar sonining o'sishi; – yangi texnologiyalarni joriy etish	Korxonalar faoliyatini jonlantirishni baholash, yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish uchun bo'sh mablag'larni ko'paytirish Klaster tashkil etilgandan so'ng sohadagi innovatsiyalar sonining ekspert bahosi
k5 – yangi texnologiyalarni tijoratlashtirish	0,5	– yangi texnologiyalarni tijoratlashtirish uchun resurslarning mavjudligi	Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun infratuzilmaning mavjudligini baholash
3. Tarmoqning iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishi (N3)			
k6–ish (xizmatlar) hajmi	0,4	– klaster korxonalaridagi ishlar (xizmatlar) hajmining tarmoqdagi umumiy ish (xizmatlar) hajmidagi ulushining o'sishi	Ishlar (xizmatlar) hajmining salohiyati klasterni yaratishda nazarda tutilgan shart-sharoitlarni yaratishda aniqlanadi, ya'ni korxonaning hozirgi paytdagi salohiyati, shuningdek, birlashganda uni qanchalik oshirishga qodirliqi aniqlanadi.
k7 – tarmoqda band bo'lganlar soni	0,3	– klaster korxonalarida band bo'lganlar sonining tarmoqda band bo'lganlar umumiy sonidagi ulushining o'sishi	Korxonada band bo'lganlar sonining o'sish koeffitsiyenti o'tgan yillar dinamikasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish hajmlarining o'sishiga qarab hisoblanadi. Klaster tashkil etilgandan keyin ishlab chiqarishning prognoz qilingan hajmiga muvofiq, klasterga kiritilgan korxonalarda band bo'lganlar soni hisoblanadi.
k8 – asosiy kapitalga	0,3	– klaster korxonalarining	Korxonalarining asosiy fondlarni ko'paytirishga

¹⁶Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

investisiyalar hajmi		asosiy fondlarini yangilanishi; –yangi qurilishlar o'rali mintaqaga investisiyalar hajmini oshirish	yo'naltirilgan shaxsiy mablag'lari hajmi baholanadi
4. Klaster a'zolari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlarning mavjudligi (N4)			
k9 – hamkorlik darajasi	0,4	–klaster korxonalarining hamkorlikning zarur darajasiga erishish qobiliyati	Har bir ishtirokchining hamkorligi ekspert darajasida turli mezonlar bo'yicha baholanadi. Olingan qiymat o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa, klaster a'zolari doirasidagi hamkorlik rivojlangan deb tahmin qilish mumkin va klasterning tashkil etilishi a'zolar o'rtasidagi hamkorlik darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.
k10–klasterni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish	0,3	–zarur infratuzilmani yaratish imkoniyati	Ekspert baho
k11–boshqaruvning yangi darajasiga chiqish	0,3	–klaster korxonalari rahbarlarining boshqaruvning yuqori darajasiga erishish qobiliyati	
5. Klaster a'zolarining geografik yaqinligi, klaster a'zolarini to'g'ri tanlash va ularning soni (N5)			
k12–klaster a'zolarining geografik yaqinligi	0,5	–klaster a'zolarining hududiy joylashuvi	Klaster a'zolarining yaqin joylashganligi baholanadi
k13–klaster a'zolarini to'g'ri tanlash va ularning soni	0,5	–ichki bozorda maksimal ulushga ega bo'lgan korxonalarining minimal sonini tanlash	Har bir korxonaning tarmoqdagi ulushi baholanadi (ko'rsatkichlar bo'yicha: ishlab chiqarish hajmi, korxonadagi band bo'lganlar soni)

Yaratilayotgan klasterning xususiyatlarini baholash har bir mezon uchun ballar sonini (ki) uning xarakteristikaga ta'sir ko'rsatish koeffitsiyentiga quyidagi formula bo'yicha ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi:

$$N = \sum(k_i \cdot K_i) \quad (1)$$

Tarmoq klasterini yaratish samaradorligi ko'rsatkichi (Ef) barcha xususiyatlar bo'yicha yakuniy baholarning o'rtacha arifmetik qiymati sifatida aniqlanadi. Yuqoridagi ballar shkalasidan kelib chiqqan holda, agar yakuniy ball 7,5 balldan yuqori bo'lsa, klasterni yaratish samarali bo'lishini hisobga olish taklif etiladi, chunki bu holda tarmoq klasterini tashkil etish tarmoq rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi va shunga mos ravishda yaratilayotgan tarmoq klaster samaradorligini belgilaydi.

Yaratilayotgan klaster samaradorligini baholash uchun taklif qilingan tizimni jadval shaklida taqdim qilamiz (3-jadval).

Yaratilayotgan klaster faoliyati samaradorligini baholashning taklif etilayotgan tizimi uni yaratishning dastlabki bosqichida ushbu integratsiya tuzilmasini yaratish samarali yoki samarali emasligini baholash imkonini beradi. Klaster yaratish samaradorligini baholashdan so'ng klaster tashabbuslarini amalga oshirishni boshlash mumkin bo'ladi.

Yaratilayotgan klaster samaradorligini baholash bo'yicha taklif etilayotgan usulni Toshkent viloyatidagi kon-metallurgiya klasteri misolida ko'rib chiqildi.

Samaradorlik ko'rsatkichini (Ef) hisoblash mumkin bo'lgan 10 balldan 9 ball natija berdi:

$$Ef = \frac{\sum Ni}{i} = \frac{10+5+10+10+10}{5} = 9 \quad (2)$$

O‘zbekistonning Toshkent viloyati metallurgiya sanoatida taklif etilayotgan klasterlarni yaratish samaradorligini baholash natijasi boshqa mezonlar bo‘yicha olingan yuqori ball tufayli klaster yaratish samaradorligini ko‘rsatadi.

Toshkent viloyati metallurgiya sanoatida klasterlarning asosiy maqsadi klaster ishtirokchilarining resurslarini birlashtirish natijasida erishiladigan sinergik samara hisobiga korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishdan iborat bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyatida kon-metallurgiya sanoati innovatsion klasterini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari”** deb nomlangan va unda muallif tomonidan taklif etilgan yondashuvlar asosida kon-metallurgiya sanoatining innovatsion klasterini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari va korxonaning barqaror iqtisodiy o‘rinishini ta‘minlovchi rivojlanish strategiyasini amalga oshirish mexanizmi samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar o‘z ifodasini topgan.

